



JADIDCHILIK HARAKATI VA AYOLLAR SAVODXONLIGIDA KUTUBXONALARNING ROLI

*Teshabayeva U.A., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori*

Annotatsiya Mazkur tezisda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati sharoitida ayollar savodxonligini oshirish jarayonida kutubxonalarning tutgan o'rni yoritiladi. Jadid ziyolilarining xotin-qizlar ta'limi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ayollar uchun maxsus nashrlarni ommalashtirish borasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Kutubxonalar ayollarning ijtimoiy faolligi va milliy ong shakllanishida muhim ma'rifiy institut sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ayollar savodxonligi, kutubxona, ma'rifat, milliy ong, Turkiston, xotin-qizlar ta'limi.

Jadidlar faoliyatida ayollar savodxonligi masalasi

Jadidchilik mafkurasida ayol — “millat tarbiyachisi”, “kelajak avlod yetishtiruvchisi” sifatida talqin qilindi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ismoil G'aspirali kabi jadid ziyolilari o'z asarlarida ayollar ta'limini millat kelajagi bilan bevosita bog'lab tushuntirdilar. Ayniqsa, G'aspiralining “Ayollarsiz jamiyat taraqqiy eta olmaydi” mazmunidagi qarashlari Turkistonda ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Jadidlar tomonidan qizlar uchun maxsus maktablar ochilibgina qolmay, xotin-qizlarga mo'ljallangan darslik va risolalar nashr qilindi. Ayollar savodxonligini oshirishga qaratilgan ma'rifiy targ'ibot kuchaytirildi. Bu jarayonda kutubxonalar nazariy bilim manbai bilan bir qatorda amaliy ma'rifiy muhit vazifasini ham bajardi.

Kutubxonalarning ayollar savodxonligidagi ma'rifiy funksiyasi

Jadidlar davrida kutubxonalar maktab va madrasalar qoshida, jamoat muassasalari huzurida, shaxsiy va oilaviy kutubxonalar shaklida faoliyat yuritgan bo'lib ular orqali ayollar: o'qish va yozishni o'rganish; tarix, tarbiya, axloq, tibbiy gigiyena haqida bilim olish; badiiy adabiyot bilan tanishish; jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni anglash imkoniga ega bo'ldilar.

Ayniqsa, ona tilidagi darsliklar, axloqiy risolalar, oilaviy tarbiya haqida yozilgan asarlar kutubxona fondining muhim qismini tashkil etdi. Natijada ayol kitobxonlar qatlamining shakllanishi boshlandi.

Kutubxonalar shuningdek: ayollar uchun jamoaviy mutolaa mashg'ulotlari; savod o'rgatish kurslari; tarbiyaviy suhbatlar va muhokamalar orqali xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qildi.

Ayollar savodxonligi orqali milliy ongning shakllanishi

Ayollar savodxonligining oshishi o'z navbatida oiladagi tarbiya sifatini yaxshilanishiga, hamda yosh avlodda ilmga qiziqish kuchayishiga olib keldi. Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning saqlanishiga xizmat qildi.

Savodli ayol farzandining tarbiyasiga ongli yondashish barobarida milliy qadriyatlarni anglab yetadi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga intiladi. Shu jihatdan qaraganda, kutubxona orqali ayollarning ma'rifiy jihatdan kamol topishi milliy ongning mustahkamlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Jadidlar aynan shu orqali jamiyatni ichdan isloh qilish yo'lini tanladilar.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati sharoitida ayollar savodxonligi millat taraqqiyotining muhim sharti sifatida talqin qilindi. Kutubxonalar xotin-qizlarning ilmga, kitobga, ijtimoiy hayotga jalb etilishida asosiy ma'rifiy institut bo'lib xizmat qildi. Ayollar savodxonligi orqali oilada va jamiyatda ma'naviy muhit sog'lomlashdi, milliy ong mustahkamlandi. Bugungi kunda ham



kutubxonalar faoliyatida ayollar kitobxonligini rivojlantirish, ularning ijtimoiy-ma'naviy faolligini oshirish jadidlar merosining davomiy ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Fan, 1997.
3. Ismoil G'aspirali. *Tarjimon gazetasidagi maqolalar to'plami*. – Qozon, 1905.
4. Abdurauf Fitrat. *Millatni saodatga yetkazadigan yo'l*. – Istanbul, 1913.
5. *O'zbekiston Milliy kutubxonasi fondlaridan jadid matbuoti nashrlari katalogi*. – Toshkent, 2020.
6. *O'zbekistonda xotin-qizlar ta'limi va ma'rifati tarixi*. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
7. *O'zbekistonda kutubxonachilik ishini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami*. – Toshkent, 2021.
8. *O'zbekiston tarixi*. 3-jild. – Toshkent: Fan, 2011.

